

---

## BAYRAM SHODIYONALARI BO'LIB O'TMOQDA

Shu kunlarda yurtimiz bo'ylab keng nishonlanayotgan Yangilanish va yasharish ayyomi – Navro'z bayrami tantanalari Toshloq tumanidagi korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalarida bo'lib o'tmoqda.

Bugun Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan tumandagi 43-umumta'lim maktabida tadbir bo'lib o'tdi.

Navro'z tantanalari boshlangunga qadar tadbirga tashrif buyurganlar maktabda tashkil etilgan chevarchilik, do'ppido'zlik, ingliz va rus tili to'garaklari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Bayram tadbiri davomida maktabning iqtidorli o'quvchilari tomonidan namoyish etilgan raqs dastalari, ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga shodlik ulashdi. Shuningdek, o'zida milliylikimizni aks ettirgan liboslar, milliy hunarmandchilik va milliy taomlar ko'rgazmalari tashkil etilib, bu yerga tashrif buyurganlar ko'nglida iliq taassurotlar uyg'otdi.

2023-03-16 17:39:06